

KOMIL INSON G‘OYASINING O‘ZBEK ADABIYOTIDAGI BADIY TALQINI

O‘tkirxon Abdullaev,

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada komil inson g‘oyasining adabiy asarlarda badiiy ifodalanishi, uning tarixiy-falsafiy taraqqiyoti hamda turli davr adabiyotlarida aks etishi tahlil qilinadi. Tasavvufiy, didaktik, jadid va zamonaviy adabiyot namunalari asosida komil inson obrazining shakllanishi va uning ma‘naviy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Komil inson, adabiyot, badiiy talqin, tasavvuf, axloq, ma‘naviyat, Navoiy, Yassaviy, Qutadg‘u bilig, jadid adabiyoti.

Аннотация. В данной статье анализируется художественное выражение идеи совершенного человека в литературных произведениях, её историко-философское развитие, а также отражение в литературе различных эпох. На основе образцов суфийской, дидактической, джадидской и современной литературы рассматривается формирование образа совершенного человека и его духовное значение.

Ключевые слова: совершенный человек, литература, художественная интерпретация, суфизм, нравственность, духовность, Навои, Яссави, «Кутадгу билиг», джадидская литература.

Abstract. This article analyzes the artistic expression of the idea of the perfect human in literary works, its historical and philosophical development, and its reflection in the literature of different periods. Based on examples from Sufi, didactic, Jadid, and modern literature, the formation of the image of the perfect human and its spiritual significance is examined.

Keywords: perfect human, literature, artistic interpretation, Sufism, ethics, spirituality, Navoi, Yassavi, “Kutadgu Bilig”, Jadid literature.

Kirish. Komil inson g‘oyasi Sharq va G‘arb adabiy-falsafiy tafakkurida inson kamolotining eng yuksak mezoni sifatida qaraladi. Adabiyotda bu g‘oya faqat nazariy tushuncha bo‘lib qolmay, balki badiiy obrazlar, syujetlar va ramziy ifodalar orqali jonlantirilgan. Komil inson — bu nafaqat axloqan pok, balki aqlan yetuk, ma‘naviy barkamol va jamiyat oldidagi mas‘uliyatini chuqur anglaydigan shaxsdir. Adabiy asarlarda komil inson g‘oyasi davrlar davomida turli shakllarda rivojlanib borgan: tasavvufiy adabiyotda u ruhiy yuksalish orqali, didaktik asarlarda axloqiy tarbiya orqali, badiiy adabiyotda esa ideal obrazlar orqali ifodalangan.

Adabiyotlar tahlili. Komil inson g‘oyasi adabiyotda asosan tasavvufiy, didaktik va badiiy yo‘nalishlarda shakllangan. Tasavvufiy manbalarda, xususan Ahmad Yassaviy hikmatlarida komil inson ruhiy poklanish, nafsni tiyish va ilohiy muhabbat orqali erishiladigan ma‘naviy yetuklik sifatida talqin etiladi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida esa komil inson adolatli, dono va jamiyat uchun foydali shaxs sifatida tasvirlanib, uning ijtimoiy ahamiyati ta‘kidlanadi. Alisher Navoiy ijodida komil inson g‘oyasi eng yuksak badiiy-falsafiy darajaga ko‘tarilib, adolat, ilm, saxovat va insonparvarlik kabi fazilatlar bilan uyg‘un holda yoritiladi. Jadid adabiyotida ham komil inson g‘oyasi yangi mazmun kasb etib, u ma‘rifatli, erkin fikrlovchi, zamonaviy bilimlarga ega va millat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi shaxs sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tarixiy-qiyosiy, tahliliy va badiiy-estetik metodlardan foydalanildi. Tarixiy-qiyosiy yondashuv orqali turli davr adabiyotlarida komil inson g'oyasining rivojlanishi solishtirildi. Tahliliy metod yordamida asosiy asarlar mazmuni o'rganildi. Badiiy-estetik metod esa komil inson obrazining ramziy, didaktik va lirik ifoda shakllarini tahlil qilishga xizmat qildi.

Tahlillar va natijalar. Ahmad Yassaviy hikmatlarida: Xoja Ahmad Yassaviy ilm-ma'rifat, bilim, insonga olamni bilishga, tanitishga, ilm va tajriba uzviy aloqador bo'lishi, ahloqdan, tarbiya va ilmdan hosil bo'ladigan yaxshi xulq-odob insonga ikki dunyoda ham kerakligini tushuntirishga alohida e'tibor qaratadi. Xoja Ahmad Yassaviy insonga barkamol shaxs bo'lib yetishishning bir qancha shartlarini asoslab ko'rsatadi[1.51]:

Ahmad Yassaviy ijodida komil inson ruhiy poklanish yo'lidan boradigan, nafsini tiygan, sabr va qanoatni o'z hayot tamoyiliga aylantirgan barkamol shaxs sifatida tasvirlanadi. Uning hikmatlarida dunyo o'tkinchi va foni, ma'naviyat esa abadiy qadriyat sifatida talqin etiladi. Komillikka erishishning asosiy yo'li esa insonning o'z ichki dunyosini tarbiyalashi, nafs ustidan g'alaba qozonishi talqin qilingan.

Dunyo uchun g'am yema.

Haqdin o'zgani dema.

Kishi molini yema,

Sirot uzra tutaro.

Ahmad Yassaviy usbu misralarida nafs insonni xor qilishini, o'z hushyorligini yo'qotgan insonni u yengishini va o'ziga tobe qilishini ta'kidlagan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan falsafa fanlari doktori Ismoil Saifnazarov Yusuf Xos Hojib "Hayotdagi barcha savobli amallar faqatgina bilim bilangina bajariladi, ilm yordamida osmoni-falakka ham parvoz qilish mumkin deb hisoblaydi"[2] deya fikr bildirgan va fikrining isboti sifatida Yusuf Xos Hojibning quyidagi satrlarini keltirgan.

"Jami ezguliklar bilim nafidur,

Bilim hatto osmon sari yo'l ochur".[3.30]

"Qutadg'u bilig" asarida komil inson ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan ham yoritiladi. Unda adolatli hukmdor, dono vazir va oqil inson obrazlari orqali jamiyatni boshqarishda axloqiy yetuklikning ahamiyati ko'rsatiladi. Asar komil insonni faqat shaxsiy fazilat emas, balki jamiyat barqarorligining asosi sifatida talqin qiladi.

Alisher Navoiy ijodida: N. Komilov «Timsollar timsoli» maqolasida keltiradiki, tasavvuf ahli nashrida komil inson «zohiriy va botiniy ilmlarni to'liq egallagan, ko'ngil oynasi musaffo bo'lgan, g'ayb asroridan xabar beruvchi kishidir» [4.101].

Alisher Navoiy ijodida komil inson ilmi, axloq va ruhiy yetuk bo'ladi. Ilm insonni jaholatdan qutqaradi, axloq halollik va adolatni shakllantiradi, ruhiy kamolot esa nafsni yengish va ilohiy muhabbatga erishish bilan bog'liq deya keltirgan. Asarlaridagi qahramonlar, Farhod mehnatsevar va fidoyi komil inson timsoli, Majnun esa ishq orqali

ruhiy yuksalishga erishgan obrazdir. Navoiy insonni o'zini tarbiyalashga, ma'naviy va axloqiy kamolotga intilishga undaydi. Alisher Navoiy komil inson g'oyasini eng yuqori badiiy-falsafiy darajaga ko'targan mutafakkirdir. Uning "Hayrat ul-abror", "Mahbub ul-qulub", "Lison ut-tayr" kabi asarlarida komil inson: adolatli, saxovatli, ilmli, halol, insonparvar sifatida tasvirlanadi. Navoiy asarlarida komil inson faqat individual ideal emas, balki jamiyatni ma'naviy yuksaltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, "Lison ut-tayr" asarida ma'naviy sayohat orqali insonning o'zini anglash jarayoni badiiy ifoda etiladi.

Komil inson g'oyasining badiiy shakllari: Adabiy asarlarda komil inson g'oyasi bir necha badiiy shakllarda namoyon bo'ladi. Adabiyotda komil inson obrazi ko'pincha ramziy qahramonlar orqali ifodalanadi. Yozuvchilar ma'naviy kamolot yo'lini turli obrazlar yordamida ko'rsatadilar. Masalan, haqiqat izlovchi, yo'l bosuvchi yoki donishmand qahramonlar komillik timsoli bo'ladi. Bunday qahramonlar turli sinovlardan o'tib, ruhiy jihatdan yetiladi. Ularning sabr, sadoqat, halollik va ilmga intilishi komil inson fazilatlarini ochib beradi. Farhod va Majnun obrazlari bunga yorqin misoldir.

2. Didaktik hikoyatlar orqali: Komil inson g'oyasi adabiyotda hikoyat va masallar orqali ham ifodalanadi. Ularda insonning yaxshi va yomon fazilatlarini turli voqealar orqali ko'rsatiladi, halollik, sabr, saxovat va mehr-oqibat ulug'lanadi. Hikoyatlarning ta'siri shundaki, o'quvchi voqealar orqali o'zi xulosa chiqaradi. Qahramonlar xatti-harakati yaxshilik va yomonlikni farqlashga yordam beradi. Shu bois didaktik hikoyatlar tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mumtoz adabiyotda ham bunday asarlar komil inson tushunchasini sodda va ta'sirchan ifodalashga xizmat qilgan.

3. Lirik ifoda orqali: Komil inson g'oyasi she'riyatda lirik kechinmalar orqali ham ifodalanadi. Shoirlar insonning ichki dunyosi, ruhiy holati va ma'naviy izlanishlarini samimiy tuyg'ular orqali yoritadilar. Muhabbat, sabr va ruhiy poklanish komillikning muhim belgisi sifatida talqin qilinadi. Lirik asarlarda ezgulik va yomonlik o'rtasidagi ichki ziddiyatlar badiiy obrazlar orqali ochiladi. Shoir komil insonni pok qalb, mehribon va sabrli shaxs sifatida tasvirlaydi. Mumtoz she'riyatda, xususan Navoiy va Yassaviy ijodida bu g'oya yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Jadid adabiyotida komil inson talqini: B. Qosimov shunday yozadi: «Jadid» ning ma'nosi yangi demakdir. U shunchaki yangi yo bo'lmasa «yangilik tarafdori» degani emas. Balki «yangi tafakkur», «yangi inson», «yangi avlod» singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etgan». [5.5] "Padarkush" dramasida Behbudiy shunday deydi: "Farzandni yoshligidan ilm, odob va axloq bilan tarbiyalash — jamiyatni saqlashning yagona yo'lidir." [6]

Jadid adabiyotida komil inson g'oyasi yangi mazmun kasb etadi. Bu davrda komil inson: ma'rifatli, erkin fikrlovchi, zamonaviy bilimlarga ega, millat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon kabi ijodkorlar asarlarida

komil inson g'oyasi ijtimoiy uyg'onish bilan bog'liq holda yoritiladi. Bu bosqichda komillik faqat ruhiy emas, balki ijtimoiy faollik bilan ham belgilanadi.

Zamonaviy adabiyotda komil inson g'oyasi: Zamonaviy adabiyotda komil inson obrazi yanada kengroq mazmunda talqin qilinadi. Endilikda u faqat axloqiy jihatdan yetuk shaxs emas, balki mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarashga ega va zamonaviy hayot bilan hamnafas inson sifatida tasvirlanadi. Bunday qahramonlar jamiyatdagi muammolarga befarq bo'lmaydi, o'z o'rnini va hayot ma'nosini izlashga intiladi.

Zamonaviy adabiyotda insonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va psixologik holatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yozuvchilar qahramonlarning o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari va hayotiy qarashlarini chuqur tahlil qilish orqali komillik masalasini yoritadilar. Shu bilan birga, zamonaviy asarlarda komil inson obrazi milliy qadriyatlarni asrab-avaylaydigan, lekin global tafakkur bilan yashaydigan shaxs sifatida ham gavdalanadi.

Xulosa. Komil inson g'oyasi adabiyotda abadiy mavzulardan biridir. U turli davrlarda turlicha talqin qilingan bo'lsa-da, asosida ma'naviy kamolot, axloqiy poklik va jamiyat oldidagi mas'uliyat yotadi. Mumtoz adabiyotda u ruhiy poklanish va yetuklik timsoli bo'lsa, jadid adabiyotida ma'rifatli va millat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi shaxs sifatida yoritiladi. Zamonaviy adabiyotda esa insonning ichki dunyosi va psixologik holati bilan boyigan. Umuman, komil inson g'oyasi adabiyotda ezgulik, ilm-ma'rifat va insonparvarlikni targ'ib etadi hamda bugungi kunda ham tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Яссавий А. Ҳикматлар. – Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – Б.51.
2. Ismoil Saifnazarov. YUSUF XOS HOJIBNING "QUTADG'U BILIG" ASARIDA KOMIL INSON MASALASINING YORITILISHI. The importance of Yusuf Khas Hajib's philosophical legacy in forming the foundations of the third
3. Renaissance // ALFRAGANUS UNIVERSITY
4. Каримов Қ. Илк бадиий дoston. – Тошкент, 1976. – 30 б.
5. Алишер Навоий. Ғазаллар, шарҳлар. «Камалак», Тошкент. 1991 и., 101-б.
6. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. –Т.: Ma'naviyat, 2002. – В. 5.
7. Behbudiy M. Padarkush. -Toshkent: 1990. В. 23-26